



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK O'YINLARNI TASHKIL QILISH

*Qarshi davlat universiteti pedagogika fakulteti*

*Boshlang'ich ta 'lim yo 'nalishi*

*Talaba:Xidirov Murodjon*

**Annotatsiya:** *Boshlang'ich sinflarda matematik o'yinlarni tashkil etish o'quvchilarning hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirish, matematik fikrlashni oshirish va dars jarayonini qiziqarli qilish uchun samarali vosita hisoblanadi. Didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning , kreativ fikrlash doirasini kengaytiradi.O'yinlar yordamida o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish, natijalarga erishishda raqobat muhitini yaratish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.*

**Kalit so'zlar:** *matematik o'yinlar, o'quvchilar, hisoblash ko'nikmaları, matematik fikrlash, qiziqarli metodlar, jamoaviy ish, raqamlı kartalar.*

Boshlang'ich sinflarda matematik o'yinlarni tashkil qilish- O'yinlar o'quvchilarning matematik ko'nikmalarini rivojlantirish, qiziqish va motivatsiyani oshirish uchun mo'ljallangan.Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika faniga qiziqtirish, o'quv materiallarini yaxshi o'zlashtirishlari hamda iqtidorlarini rivojlantirish maqsadida darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil etishning ahamiyati to'g'risida fikr yuritilib, tavsiyalar berilgan.Matematika minutliklarida, topshiriqlarga qiziqish uyg'otish va quvvatlash uchun bu topshiriqlar darslarda beriladigan oddiy matematik topshiriqlarga o'xshash bo'Imasligi kerak.Mashg'ulot o'tkazish uchun har xil qiziqarli arifmetik va geometrik mazmunli masalalar, qiyinroq masalalar, hazil masalalar, masalalar tuzishga doir masalalar, qiziqarli kvadratlar, rebuslar, topishmoqlar va boshqalar material boiib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda ham olib borilayotgan matematika fanini zamonaviy, ya'ni, ilg'or pedago-gik texnologiyalardan foydalanib, mashg'ulotlar olib borilsa,



maqsadga muofiq bo'lardi. Birgina yuqorida ta'kidlaganimizday, didaktik o'yinli metodlardan foydalanish bugungi kun zamon talablaridan hisoblanadi.

Darchalarni to'ldir" o'yini. Didaktik topshiriq. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini o'sti-rish. O'yin topshirig'i. O'yin jarayonida bolalaming matematik og'zaki hisoblash qobiliyatini takomil-lashtirish. O'yin bayoni: uyning tartib raqami va yoshini aniqlash. O'yin bayoni: har bir o'quvchining so-niga teng ko'rgazma tayyorlanadi, orasiga qo'yilgan varaqqa misollar yozilgan bo'ladi. Bu varaqlarni teztez almashtirib turish uchun qulay qilib tayyorlash lozim. O'qituvchi o'yinning sharti bilan tanishtiradi va hamma o'quvchilarga o'tilgan mavzu asosida yozilgan ko'rgazma tarqatiladi. So'ng bu perfokartochka-dagi misollarning javobi qanday bajarilishi tushuntiriladi. Masalan, birinchi qo'shiluvchi 400 bo'lsa, ik-kinchi qo'shiluvchi noma'lum bo'lsa, yig'indi 432 boar ekan. Siz ikkinchi qo'shiluvchini qanday qilib to-pasiz? Buni toping va topgan 32 sonini darchaga yozib qo'ying. Yoki qaysi sondan 24 ni ayirsang, 500 56 . 8 400 . 432. 24 500 81 hosil bo'ladi. Demak, 524 dan 24 ni ayirsak, 500 hosil bo'ladi. Shu bois darchaga 524 deb yozib qo'ya-miz. 56 ni qaysi songa bo'lsak, 8 hosil bo'ladi: 56 ni 7 ga bo'lsak, 8 hosil bo'ladi, darchaning ichiga 7 so-ni yoziladi. Darcha ichiga yozayotgan raqamlarimizni oddiy qora qalam bilan yozsak, o'chirib tashlashga qulay bo'ladi. Bu o'yinni hamma amallar bilan og'zaki savol-javob orqali o'tkazish mumkin. Masalan, men bir son o'yladim. Shu o'ylangan songa 7 ni qo'shib, 97 hosil qiling. O'ylangan sonni toping. 90. Men bir son o'yladim, o'ylangan sondan 100 ni ayirgan edim, 69 hosil bo'ldi. O'ylangan sonni toping. 169. Shunday o'yinlar o'quvchilarni fikrlashga, mehnat qilishga va ularning o'tkir zehnli bo'lishiga, tezkorlikka, topqirlikka undaydi.

Jim o'yini – bu matematik ko'nikmalarni rivojlantirish va o'quvchilarni qiziqtirish maqsadida o'ynaladigan interaktiv o'yinlardan biridir. Bu o'yin, odatda, o'yinchilarga suzuvchi raqamlar yoki matematik misollar berilishiga asoslanadi.O'yin tartibi

1. O'yinchilar: O'yin jamoalar yoki individual ravishda o'ynalishi mumkin.
2. Ma'lumot tayyorlash: O'yin uchun kerakli matematik masalalar, raqamlar yoki shartlarni tayyorlang.



3. Qoidalar: - O'yin boshlanishidan oldin, o'yinchilarga qoidalar tushuntiriladi.

- O'yinchilar o'z navbatida raqamlarni yoki masalalarni yechishlari kerak, lekin jum bo'lishlari zarur.

- Har bir raqam yoki masalaning yechimi, o'yinchi tomonidan maxfiy tarzda ko'rsatiladi.

4. O'yin davomiyligi: O'yin vaqtini oldindan belgilab olish tavsiya etiladi (masalan, 15 yoki 20 daqiqa).

5. G'alaba shartlari: Kim tez-tez to'g'ri javob beradigan bo'lsa, o'sha g'olib hisoblanadi.

#### O'yin foydalari

- Matematik ko'nikmalarni mustahkamlash.

- E'tibor va diqqatni oshirish.

- O'quvchilar o'rtasida jamoaviy hamkorlikni rag'batlantirish.

- Qiziqarli va muqaddas muhitda o'rghanishni ta'minlash.

Xulosa qiladigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematik o'yinlarni tashkil qilishda o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini, kreativ fikrlashni, turli xil metodlarni o'rghanishni talab qiladi. O'quvchilarga didaktik o'yinlar yordamida dars tashkil qilinsa darsning samarasi yuqori bo'ladi va darsdan kutilgan natijani olish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1."Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent, 2005 yil 7. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G'. "Boshlang'ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi" Toshkent, "TDPU" 2005 yil 8. Jumayev M.E.
2. Bolalarda matematik tushunchlarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi (KHK uchun) Toshkent, "Ilmg'Ziyo" 2005 yil 9. Jumayev M.E.
- 3.. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi (KHK uchun) Toshkent, "Arnoprin" 2005 yil 10. Toshmurodov B.
4. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni takomillashtirish "Toshkent "O'qituvchi", 2000 yil 11. Jumayev M. E.